



## LINGUOCULTURAL AND LINGUOREGIONAL FEATURES OF THE METEONYM *PLUIE* – RAIN IN FRENCH PAREMIOLOGY

Toshqobil Bozor o‘g‘li Muqumov

*Doctoral student (PhD)*  
*Samarkand State Institute of Foreign Languages*  
*Samarkand, Uzbekistan*

[kobilmukumov@mail.ru](mailto:kobilmukumov@mail.ru)

<https://orcid.org/0000-0002-5527-8486>

<https://doi.org/10.36078/1783397865>

**Abstract.** This article discusses the linguoregional, linguocultural and semantic features of paremiological units in which the metonym rain is involved. The role of metonyms in linguistics, their study, as well as the linguocultural, semantic and territorial features that express them when they appear in paremiological units were studied. The linguocultural, semantic and territorial features of proverbs and sayings related to the phenomenon of rain and rainfall in the French language material were analyzed and how the phenomenon of rain was reflected in the socio-cultural life and values of French departments were analyzed. It was also shown through examples that these units show national and territorial identity and in this process, the diverse features of local culture, folk lifestyle, values, as well as the territorial-cultural landscape of departments are revealed. The article analyzes the linguistic and cultural aspects of the spiritual world of the inhabitants of French departments, which relate to the relationship between man and nature, as reflected in the paremiological units of the metonym of rain. Using selected examples, it is shown that it is possible to get an idea of the daily routines and traditions of the people of this region through what and how rain affects them. The fact that the inhabitants of different regions have different attitudes to rainfall on a given day, month or season and the factors that play a role in the different attitudes were shown through the analysis of examples. The article also examined the connotative properties of the words included in the examples.

**Keywords:** value; semantic structure; regionality; paremiological units; regional identity; connotative layer.

## FRANSUZ PAREMIOLOGIYASIDA *PLUIE* – *YOMG'IR* METEONIMINING LINGVOMADANIY VA LINGVOREGIONAL XUSUSIYATLARI

Toshqobil Bozor o'g'li Muqumov

*Doktorant (PhD)*  
*Samarqand davlat chet tillar instituti*  
*Samarqand, O'zbekiston*

**Annotatsiya.** Maqolada yomg'ir meteonimi ishtirok etgan paremiologik birliklarning lingvoregional, lingvomadaniy hamda semantik xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Bunda meteonimlarning tilshunoslikdagi o'rni, ularning o'rganilishi, shuningdek, ularni paremiologik birliklar tarkibida kelganda ifoda etadigan lingvomadaniy, semantik va hududiy o'ziga xoslik kabi xususiyatlari o'rganildi. Fransuz tili materialida yomg'ir va yomg'ir yog'ish hodisasiga oid maqol hamda matallarning lingvomadaniy, semantik, hududiy o'ziga xoslik kabi xususiyatlari tahlil qilinib, yomg'ir hodisasining Fransiyaning turli departamentlari ijtimoiy-madaniy hayotida hamda qadriyatlarida qanday aks etganligi tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu birliklarda milliy hamda hududiy o'ziga xoslikni ko'rsatib berishi, bu jarayonda mahalliy madaniyat, xalq turmush tarzi, qadriyatlarning rang-barang xususiyatlari, qolaversa, departamentlarning hududiy-madaniy manzarasi yuzaga chiqishi misollar orqali ko'rsatilgan. Maqolada inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarga tegishli fransuz xalqi ma'naviy dunyosidagi o'ziga xos qarashlar, qadriyat va an'analar yomg'ir meteonimiga oid paremiologik birliklarda aks etganligi lingvomadaniy jihatdan tahlil qilindi. Tanlab olingan misollar yordamida yomg'irning nimaga va qanday ta'sir etishi orqali o'sha hudud xalqining kundalik yumushlari, an'analari borasida tasavvurga ega bo'lish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Ma'lum bir kun, oy yoki faslda turli hududlar aholisi yomg'ir yog'ishiga turli xil munosabatda bo'lishi, munosabatning turli xilda bo'lishida rol o'ynaydigan omillar misollar tahlili orqali ko'rsatib o'tildi. Shuningdek, maqolada misollar tarkibida kelgan so'zlarning konnotativlik xususiyatlari ko'rib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** qadriyat; semantik tuzilma; regionallik; paremiologik birliklar; mintaqaviy o'ziga xoslik; konnotativ qatlam.

### Kirish

Insoniyatga xos tafakkur, dunyoqarash, madaniyat, qadriyat kabi tushunchalarni ifodalashda tilning o'rni muhim hisoblanadi. Insonlar yillar davomida atrof-muhit, tabiat hodisalari hamda inson va tabiat

munosabatlaridan orttirgan tajribalarini til orqali ifodalaydi. *Til — tabiat — madaniyat* triadasi borasida tilshunos A. Mamatov shunday fikrni aytadi: “*Til inson va tabiat o‘rtasida vositachidir. Faqat oqilona ongli faoliyat natijasidagina tabiat “predmetlari” madaniyatning “elementlari” — artifaktlarga aylanishi mumkin*” (Mamatov 2020: 34). Meteonimlar, ya’ni ob-havo hodisalarini bildiruvchi so‘zlarning til tizimida muhim o‘ringa ega bo‘lishini ta’minlashda ushbu jihatlar ustuvor rol o‘ynaydi. Ushbu birliklar tabiat hodisalarining nomi bo‘lishi bilan birgalikda xalqning madaniyati, urf-odati, qadriyati va ijtimoiy hayotini ham o‘zida namoyon etadi.

Tilshunoslikda qor, yomg‘ir, shamol kabi tabiat hodisalari bo‘lmish meteonimlar borasida ko‘plab mutaxassislar ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, fransuz tilshunosi Jean-Michel Adam meteorologik hodisalarni ifodalovchi atamalarni grammatik jihatdan, shuningdek, ularni kundalik muloqot jarayonida qo‘llanishini o‘rganib chiqadi (Adam 1995). L. B. Danilova turkiy tillarning meteorologiyaga oid leksik birliklarni qiyosiy-tarixiy jihatdan o‘rganadi (Данилова 1972). Tadqiqotchi M. O. Sorokina oltoy-rus lahjasining meteorologik lug‘atini lingvomadaniy, lingvoregional jihatdan tadqiq qiladi va tadqiq qilinadigan leksik guruhning mintaqaviy lingvistik dunyoqarashdagi ahamiyatini ko‘rsatib bergan (Сокорина 2004). Tilshunos L. Yanchun rus va xitoy tillaridagi meteorologiyaga oid leksik birliklarning lingvomadaniy, semantik xususiyatlarini, ularning metaforik funksiyalarini qiyosiy o‘rganadi (Яньчунь 2012). Yana bir tadqiqotchi M. A. Lazareva ingliz va rus tillaridagi meteorologik birliklarni semasiologik xususiyatlarini o‘rganib, ularning antonim-sinonimlik, polisemiya va monosemiya jihatdan tadqiq qiladi (Лазарева 2000). Tilshunos A. G. Iskandarov boshqird tilida meteorologik lug‘atini strukturaviy-semantik tahlil qiladi, shuningdek, ularning maqollar va matallarda aks etishini o‘rganib chiqadi (Искандаров 2009).

O‘zbek tilshunosligida esa M. Xamidova fransuz va o‘zbek tillaridagi meteorologik leksika tizimi va tarkibini o‘rganib, ularni funksional-uslubiy, paradigmatic xususiyatlarini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq qiladi, mazkur leksik birliklardagi nominatsiya, semantizatsiya, ichki shakl, shuningdek, assotsiativ jihatlarini o‘rganadi (Xamidova 2024). Tadqiqotchi A. G‘. Aliqulov yel-yog‘in otlarini til sathlari kesimida o‘rganadi va ularning badiiy-estetik vazifalariga hamda leksikografik talqinidagi muammolarga to‘xtaladi (Алиқулов 2011). Tabiat hodisalari nomlarini ifodalovchi leksik birliklarni semantik jihatdan ular tashkil qiladigan

mikromaydonlar va ularning xususiyatlarini anemonimlar tizimi bo'yicha D. Vaqqosova ish olib borgan (Ваққосова 2005). Meteonimlar bo'yicha tadqiqotchi M. Xamidova shunday yozadi: "*Ob-havo hodisalarini qayd etuvchi meteonimlar har bir xalq dunyosining madaniy va lingvistik manzarasini o'zida namoyon etadi*" (Xamidova 2024: 68). Hozirgi kunda tilshunoslikda meteonimlarni har tomonlama o'rganish mutaxassislar e'tiborida bo'lganligi bois ushbu maqolada ham *yomg'ir* hodisasiga oid fransuzcha paremiyalarning semantik, lingvomadaniy va lingvoregional xususiyatlarini ko'rib chiqishni maqsad qildik.

Ma'lumki, Fransiya hududi geografik joylashuvi jihatidan turli relyeflar: okean bilan chegaradoshligi, tog'lar, dengiz va tekisliklardan tashkil topganligi bois bu hududda turli xil ob-havoni kuzatish mumkin. Bu esa xalqning kundalik hayotida, tilida, shuningdek, madaniyatida ham namoyon bo'ladi va ular hududlar bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Buning natijasida tilda maqol va matallarning hududiy xilma-xillik hamda o'ziga xoslik xususiyatlari, ya'ni regionallik xususiyati yuzaga chiqadi. Bular paremiyalarni o'rganishdagi muhim stimullardan biri hisoblanadi. Vaholanki, bugungi kun tilshunosligida hududiy o'ziga xoslikning lingvomadaniy tadqiqotlar va madaniyatlararo muloqotni o'rganishda ahamiyati juda muhimdir. Bu borada tadqiqotchi G. A. Shusharina shunday fikr bildiradi: "*Hududiy o'ziga xoslik madaniyatlararo muloqotning davom etayotgan jarayonlarining dinamik va uzluksizligidagi haqiqiy va o'ziga xos belgilar tizimidir*" (Шушарина 2015: 167). Paremiyalarni regional tahlil qilish muayyan mintaqani boshqasidan farqlab turuvchi o'ziga xos etnik bilimlar xazinasini o'rganish demakdir. Maqol va matallarning hududiy o'ziga xoslikni namoyon qilishi borasida S. G. Ter-Minasova shunday deydi: "*Frazeologizmlar, maqollar, matallar muayyan jamoaning turmush tarzi, geografik o'rni, tarixi, an'analarini yaqqol ifodalaydi...*" (Ter-Минасова 2000: 146). Chunki turli madaniy kodlarni, ya'ni qadriyatlar, ramzlar, urf-odatlar, tarixiy kontekstlar, milliy qoliplarni o'zida aks ettiruvchi paremiyalar faqat mamlakatlar madaniyatining o'ziga xosligini emas, balki mamlakat ichidagi hududlarning ham madaniy, ijtimoiy hayotidagi o'zaro o'xshashlik bilan birga xilma-xilliklarni ham namoyon qiladi. Bu borada Y. V. Cheremisina shunday deydi: "*Mintaqaviy frazeologik birliklar yorqin hissiy rangga ega bo'lib, qahramonni hayajonga soladigan voqelik hodisalari haqida majoziy ma'noda gapirishga yordam beradi*" (Черемисина 2016). Bu jarayonda mahalliy madaniyat, xalq turmush tarzi, qadriyatlarining rang-barang xususiyatlari, shuningdek, mintaqaning hududiy-madaniy manzarasi yuzaga chiqadi. Xalq og'zaki ijodining muhim bo'g'ini bo'lgan ushbu birliklarda milliy hamda mintaqaviy o'ziga xoslikning ajoyib namunalarini topish mumkin.

## Asosiy qism

Fransiya ham o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadigan hududlarni o'z ichiga oladigan davlatlardan biri hisoblanadi. Bu maqol va matallarda ham o'z aksini topgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, geografik joylashuv sababli Fransiya hududi ob-havosi, tabiati bir-biridan farq qiladi. Shu sabab ushbu tabiat xilma-xilligi kishilar kundalik hayoti, tili va madaniyatida o'z aksini topishi tabiiy holdir. Bu hodisa paremiologik birliklarda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki paremiyalarning kelib chiqishi insonni borliq va tabiatni kuzatishi hamda hayotdan olgan tajribalari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu borada ayrim fransuz paremiologlari maqol va matallar lug'atining kirish qismida ularga ta'rif berar ekan, shunday fikrni keltirib o'tadi: *“Les proverbes tirent leur origine de l'observation du monde sensible et de l'expérience humaine. Il est possible, à partir de cette constatation, de délimiter des catégories stables et cohérentes (monde vivant, monde du travail, relations, échanges...), ordonnées dans une sorte de parcours anthropologique englobant tout le champ de l'expérience humaine”* (Montreynaud, Pierron, Suzzoni 1984: 5). Tadqiqotimiz obykti bo'lgan *pluie*, ya'ni *yomg'ir* meteonimi ishtirokidagi maqol va matallarga xos lingvomadaniy va lingvoregional xususiyatlarni Fransiyaning geografik hududlari kesimida ko'rib chiqmoqchimiz. To'plangan misollar salmog'i temporal nuqtayi nazardan *aprel*, *may*, *iyun* va *avgust* oylariga to'g'ri keladi, shu sababli tahlilni ham aynan ushbu oylar kesimida amalga oshirishga harakat qildik.

**Aprél.** Aprél oyida kuzatiladigan yomg'irga doir maqol va matallar hududiy xilma-xillik, o'ziga xoslik kasb etadi. Ma'lumki, qadim davrlardan buyon yomg'ir xalqlar madaniyatida *rahmat*, *baraka*, *mo'l-ko'lchilik* belgisi hisoblanadi. Buni qadimgi Rim mifologiyalaridagi yomg'ir ilohlari bilan bog'lash mumkin. Odamlar mo'l hosil olish uchun ilohlarga yomg'ir so'rab, turli marosimlar o'tkazishgan.

Yomg'ir va yog'ingarchilik borasida O. N. Grigorieva va L. Silian o'zlarining maqolasida shunday fikr bildiradi: *“Qadim zamonlardan beri yomg'ir uchun maxsus ibodatlar mavjud bo'lganligi tasodif emas. Zamonaviy rus tilida yog'ingarchilik uchun nomlar meteorologik lug'atning asosiy guruhlaridan birini tashkil qiladi. Ular milliy o'ziga xoslikka ega va lingvistik dunyoqarashning ajralmas qismi hisoblanadi”* (Григорьева & Силян 2022). Yomg'ir meteonimi bo'yicha ish olib borgan S. M. Tolstaya yomg'ir haqida shunday degan edi: *“Yomg'ir haqiqat tomchilari, ilohiy ne'mat, samoviy saodat va poklanish,*

*unumdorlik, hosil va yer boyliklarining tushishi sifatida namoyon bo‘ladi*” (Толстая 2002: 512).

Odatda yomg‘irga baraka ramzi sifatida ijobiy munosabatda bo‘lishsa-da, lekin ayrim mintaqa aholisi uchun ularning dunyoqarashida yomg‘ir meteonimi salbiylik kasb etadi. Masalan, Fransiyaning *Lozère* va *Aveyron* regionlari qishloq xo‘jaligi madaniy hayotida aprel yomg‘iri baraka emas, *qiyinchilik* timsoli sifatida qaraladi. Bunda ushbu tabiat hodisasining paradoksal, ya‘ni kutilmagan holati namoyon bo‘ladi. Quyidagi misol bunga isbot bo‘lib keladi:

“*Pluie d’avril, Sécheresse d’été*” (Aprel yomg‘iri, Yozgi qurg‘oqchilikdir).

Bunda *pluie-yomg‘ir* so‘zi *sécheresse-qurg‘oqchilik* so‘zi bilan o‘zaro qarama-qarshi semalardagi salbiylik ma‘nosini hosil qilishning asosiy omili bo‘lib kelgan. Biroq ushbu ikki hududdan farqli ravishda, ulardan uzoq bo‘lmagan *Provence-Alpes-Côte d’Azur* mintaqasida joylashgan *Les Bouches-du-Rhône* departamenti qishi yumshoq, yozi esa issiq va quruq kelganligi bois bu hududda bahorgi yomg‘irga tuproqdagi namlikni ta‘minlovchi muhim omil sifatida qaraladi. Ko‘plab xalqlar kabi ushbu mintaqa aholisi ma‘naviy dunyosida yomg‘ir *rahmat, mo‘l-ko‘lchilik* belgisi sifatida gavdalanadi. Ushbu holatni quyidagi maqol orqali ko‘rish mumkin:

“*Pluie d’avril remplit le grenier*” (Aprel yomg‘iri omborni to‘ldiradi).

Misoldagi *grenier*-omborxonasi so‘zi denotativ jihatdan oddiy ombor, konnotativ jihatdan esa *baraka, mo‘l-ko‘lchilik, oziq-ovqat xavfsizligi* kabi ma‘no kasb etadi. Maqoldagi *pluie d’avril-aprel yomg‘iri* oddiy tabiat hodisasi sifatida emas, balki hosilning kafolati sifatida kelgan. Misolda vaqt-zamon keltirilmaganligi undagi xulosa abadiy haqiqat ekanligini ko‘rsatadi. Demak, aprel oyidagi yomg‘ir ushbu mintaqa xalqi dehqonchilik madaniyatida ijobiy ma‘no kasb etadi.

*La Vienne* departamenti aholisi ham aprel yomg‘iriga mo‘l-ko‘lchilik ramzi sifatida qarashadi. Ya‘ni ular aprel oyidagi yomg‘irni bug‘doy va xashaklar mo‘l bo‘lishining belgisi deb hisoblaydi: “*Pluie d’avril, Remplit grange et fenil*”. Maqolda aprel yomg‘iri xirmon va pichanxonani to‘ldirishi ifodalangan. Undagi *grange-ombor* va *fenil-pichanxonasi* leksemalari maxsus hududiy o‘ziga xoslikni ko‘rsatuvchi *kulturskript* bo‘lib, ijobiylikni ta‘minlovchi mo‘l hosil ramzi bo‘lib xizmat qiladi. Bu ikki so‘z orqali

hududning asosiy yumushi dehqonchilikdan iborat ekanligini anglash mumkin.

Hududiy xilma-xillik va o'ziga xoslik bo'yicha *Gironde* departamenti aholisi e'tiqodida aprel oyidagi yomg'ir hodisasi *baraka* yoki *zarar* emas, balki *darakchi*, *belgi* sifatida gavdalanadi. Masalan, hududning quyidagi xalq maqolida aprel oyidagi yomg'ir keyingi oy, ya'ni may oyida ham yomg'ir ko'p bo'lishining darakchisi ekanligi ta'kidlanadi:

“*Quand il pleut en avril, Il pleut sans cesse en mai*”  
(Aprelda yomg'ir yog'sa, mayda tinmay yomg'ir yog'adi).

Maqolda aynan aprel va may oylarining bir-biriga bog'lanishi ham regional o'ziga xoslikdir, chunki boshqa hududlarda bu ikki oyni bir-biriga bog'lash holati kuzatilmaydi.

Fransiyaning *Gard* departamenti aholisi madaniyatida aprel yomg'iri bilan bog'liq maqolda tabiatni tushunish, uni to'g'ri anglash bo'yicha qarash mavjud:

“*Quand en avril il pleuvrait,  
Que tout le monde crierait:  
Tout est noyé, tout est perdu,  
Encore il n'aurait pas assez plu*”.

Maqol tarkibidagi *tout est noyé, tout est perdu* jumalari orqali tabiatni tushunmaslik anglashilsa-da, biroq keyingi *Encore il n'aurait pas assez plu* jumlasini orqali buning zarar emas, balki foyda ekanligiga ishora qilinadi. Shu tariqa xalqning yillar davomidagi tajribasi tushunmovchilik va real zarurat o'rtasidagi kontrast shakllar orqali gavdalanadi. Maqolda hudud xalqining aprel oyidagi ko'p yomg'ir *talofat* emas, muhim *suv manbayi* degan falsafasi ifodalangan. Xususan, ushbu paremiologik birlikda xalqning shukronalik, sabr qilish tamoyillari o'z aksini topgan. Yomg'ir meteonimi ishtirokidagi ushbu paremiyada *aprel oyidagi yomg'ir* hodisasi *tabiatni anglash+uni qadrlash+sabrlilik+shukronalik* modeli orqali gavdalanadi.

O'z navbatida, *Pas-de-Calais*, *Vosges*, *Ardennes* va *Côte-d'Or* departamentlaridagi aholi ijtimoiy madaniyatida esa aprel oyidagi yomg'ir dehqonchilikda ekinlar uchun ozuqa manbayi sifatida qaraladi: “*Pluie d'avril vaut fumier ou purin de brebis*”.

Maqoldagi *go'ng* yoki *organik o'g'it* ma'nosidagi *fumier* va *purin de brebis* leksemalari mazkur hududda chorvachilik muhim o'rin egallashidan dalolat beradi.

Aprel oyi yomg'irining yuqorida ko'rib o'tilgan maqollardagi serqirra ifodasi Fransiyaning turli hududlaridagi dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu holatni quyidagi jadval asosida tasvirlash mumkin:

### 1-jadval

*Fransuz meteorologik maqollarining hududiy taqsimoti va semantik xususiyatlari*

T/r	Fransuz xalq maqollari	Maqol tegishli hudud	Maqollarning ramziy ma'nosi
1	<i>Pluie d'avril remplit le grenier.</i>	Les Bouches-du-Rhône	Aprel yomg'iri → <i>mo'l-ko'l hosil</i>
2	<i>Quand il pleut en avril, Il pleut sans cesse en mai.</i>	Gironde	Aprel yomg'iri → <i>darakchi, belgi</i> (keyingi oy uchun)
3	<i>Pluie d'avril, Remplit grange et fenil.</i>	Vienne	Aprel yomg'iri → <i>baraka, (bug'doy va xashak)</i>
4	<i>Pluie d'avril vaut fumier ou purin de brebis.</i>	Ardennes, Côte-d'Or, Marne, Nièvre, Nord, Pas-de-Calais, Vosges.	Aprel yomg'iri → <i>ekin uchun ozuqa</i>
5	<i>Quand en avril il pleuvrait, Que tout le monde crierait: Tout est noyé, tout est perdu, Encore il n'aurait pas assez</i>	Gard	Aprel yomg'iri → <i>yomon ob-havo va taqchillik</i>

*plu.*

6 *Pluie d'avril, Sécheresse* Aveyron, Lozère    Aprel yomg'iri →  
*d'été*    *darakchi, belgi* (yozning  
yomon kelishi)

**May.** May oyi ko'plab Yevropa davlatlari singari Fransiyada ham yomg'irga boy bo'ladi va u hududlarda turlicha talqin qilinadi. Bu asosan, dehqon, chorvador va bog'bonlar orasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bois keltiriladigan maqol va matallarda yuqorida sanab o'tilgan kasb egalarining yillar davomida ottirgan tajribalari o'z aksini topgan. Masalan, Fransiyaning *Haute-Saône* va *Gers* viloyatlarida chorvachilik, *Nord* departamentida esa bog'dorchilik muhim sohalardan biri hisoblanadi.

Ushbu viloyatlarda birinchi may sanasidagi yomg'ir turlicha talqin etiladi. Xususan, *Haute-Saône* aholisi chorvadorlari an'anasiga ko'ra u salbiy ma'no kasb etadi. Masalan, quyidagi maqolga e'tibor qilaylik:

*“Quand il pleut le premier jour de mai,  
Les vaches perdent moitié de leur lait”.*

Maqol may oyining birinchi kuni yomg'ir yog'sa, sigirlar sutining yarmini yo'qotadi, degan ma'noni ifodalaydi. Maqoldagi *il pleut* — yomg'ir yog'yapti va *mai* — may kabilar umumiylik kasb etsa, *Les vaches* — sigirlar, *lait* — sut leksemalari hududga xos ramziy belgi hisoblanadi, ya'ni sigir timsolida chorvadorlar hayoti gavdalanadi. Bunda birinchi may yomg'iri mahalliy meteorologik indikator sifatida xarakterlanadi: yomg'ir → chorvadorlarga zarar, ya'ni yomg'ir baraka emas, zarar, xavf sifatida gavdalanadi.

*Nord* viloyati bog'bonlarining madaniy qarashlariga ko'ra, birinchi may kechasi yog'gan yomg'ir giloslar uchun zarar hisoblanadi:

*Quand il pleut le premier nuit de mai,  
Il n'y a point de cerises.*

May oyining birinchi kechasi yomg'ir yog'sa, gilos bo'lmaydi, mazmunidagi ushbu maqol hudud aholisining kundalik hayoti va madaniyatida bog'dorchilik muhim ahamiyatga egaligini anglash mumkin.

*Gers* departamentida esa birinchi may kuni yog‘gan yomg‘ir otboqarlar uchun foyda, cho‘chqa boqadiganlar uchun esa zarar sifatida qaraladi:

*S’il pleut le premier mai,  
Le bœuf gagne et la cochon perd.*

Maqoldagi *boeuf-ho‘kiz* va *cochon-cho‘chqa* mahalliy agro-iqtisodiy hayotning timsoli sanaladi. Ho‘kiz *Gers* hududi madaniyatida rizq, halollik ramzi, cho‘chqa esa boshqa hududlardan farqli ravishda salbiy timsol sifatida gavdalanadi. Xalq donologi asosida shakllangan ushbu maqolda antitetik parallelizm aks etgan, ya‘ni bir hodisa (*la pluie – yomg‘ir*) oppozitsion natijaga ega bo‘ladi. Bundan quyidagicha gnoma anglashiladiki, tabiat hodisalari ikki xil ramzga ega: *foyda* yoki *zarar*.

Paremiyalarda aks etgan may oyi yomg‘irining Fransiya hududidagi lingvoregional xususiyatlari 10 dan ortiq viloyatlarda turlicha talqin qilinganini ko‘rish mumkin. Buni quyidagi jadval orqali umumiy tarzda tasvirlash mumkin:

## 2-jadval

*Fransuz tilida may oyi yomg‘iri bilan bog‘liq meteorologik maqollarning lingvomadaniy tavsifi*

T/r	Maqol	Hudud	Ramziy ma‘nosi
1	<i>De la pluie le premier jour de mai, Ote aux fourrages leur qualité.</i>	Ardennes	May yomg‘iri → <i>baraka (chorva uchun)</i>
2	<i>Quand il pleut le premier jour de mai, Les vaches perdent moitié de leur lait.</i>	Haute-Saône	May yomg‘iri → <i>zarar (chorva uchun)</i>
3	<i>Quand il pleut le premier nuit de mai, Il n’y a point de cerises.</i>	Nord	May yomg‘iri → <i>zarar (meva uchun)</i>

4	<i>S'il pleut le premier mai, Le bœuf gagne et la cochon perd.</i>	Gers	May yomg'iri → zarar va foyda (chorvada)
5	<i>Au mois de mai, Il faudrait qu'il ne plût jamais.</i>	Vaucluse	May yomg'iri → zarar
6	<i>Si le mois de mai est pluvieux, il y aura peu d'orge et point de blé.</i>	Corse	May yomg'iri → zarar (dehqon uchun)
7	<i>Mai pluvieux, Rend le laboureur joyeux.</i>	Hautes- Alpes	May yomg'iri → foyda (dehqon uchun)
8	<i>Quand il pleut le jour de Saint- Phillipe, Il ne faut ni tonneau ni pipe.</i>	Côtes-du- Nord, Eure, Ille- et-Vilaine, Manche Mayenne	May yomg'iri → omadsizlik belgisi (bog'dorchilikda)
9	<i>S'il pleut le jour de la petite Saint- Jean, Toute l'année s'en ressent, Et nottament jusqu'a la grade Saint- Jean.</i>	Niévre	May yomg'iri → yomon yil darakchisi
1	<i>S'il pleut aux Rogations, Le premier jour il pleuvra pendant la fenaison, Le deuxième jour pendant la moisson, Le troisième jour pendant les</i>	Jura, Haute- Marne, Haute- Saône, Vendée, Vienne	May yomg'iri → noqulay ob-havo belgisi

*vendanges.*

1 <i>Lors qu'il pleut le jour de l'Ascension, On dit: Couttes aux buissons, bonne garnison.</i>	Somme	May yomg'iri → <i>barakali yil belgisi</i>
1 <i>S'il pleut le jour de l'Ascension, C'est comme du poison.</i>	Indre	May yomg'iri → <i>zarar</i>
1 <i>Pluie le jour de l'Ascension, Les blés dépérissent jusqu'à la maison.</i>	Morbihan	May yomg'iri → <i>yomon alomat</i>
1 <i>S'il pleut à la Sainte-Pétronille, Les raisins deviennent grappilles, Ou tombent en guenilles.</i>	Aube	May yomg'iri → <i>uzumchilik uchun yomon alomat</i>
1 <i>Quand il pleut à la Sainte-Pétronille, Pendant quarante jours elle trempe ses guenilles.</i>	Côte-d'Or, Haute-Marne	May yomg'iri → <i>ko'p yog'ingarchilik</i>
1 <i>S'il pleut le jour de Sainte-Pétronille, Le blé diminue jusqu'à la faucille</i>	Meuse, Yonne	May yomg'iri → <i>bug'doy uchun yomon belgi</i>

**Iyun** oyining yomg'iri maqollar tarkibida kelganda ko'p hollarda ijobiy ma'no ifodalasa-da, lekin ayrim hollarda salbiy ma'noda ham ishlatilishini uchratish mumkin. Iyun oyi fransuz dehqonlari dunyoqarashida *mehnat* va *umid* oyi sifatida qaraladi. Sababi bu oyda erta bahorda yerga qadalgan urug'lar unib chiqadi va hosil oladi. Shu bois bu oydagi yomg'ir ularning hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iyun oyida yog'adigan yomg'irga oid maqol va matallar boshqa oylardagi misollardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ya'ni yilning boshqa oylarida yomg'ir fransuz xalqi madaniy dunyoqarashida ijobiy, salbiy, neytral ma'no kasb etsa, iyun oyi yomg'iri

esa batamom salbiy ma'no kasb etadi. Bu bo'yicha yig'ilgan misollarda ham yomg'irning nimaga ta'sir etishi, shuningdek, zarar ko'lami bilan hududlar bir-biridan farqlanadi. Shuningdek, ushbu oy bo'yicha yig'ilgan misollarda asosan gerotonimlar ishtiroki ko'zga tashlanadi. Bularga *jour de Saint-Médard, jour de la Trinité, jour de Saint-Jean, jour de Saint-Pierre* kabilarni keltirib o'tish mumkin. Misol uchun, har yili 8-iyun kuni fransuz xalqi *Saint-Médard* kunini nishonlashadi (Montreynaud, Pierron & Suzzoni 1984: 182). Aynan o'sha kuni yog'gan yomg'ir dehqonchilik va chorvachilikka salbiy ta'sir etishi borasidagi fikrlar butun Fransiyada keng tarqalgan. Lekin misollarda har bir hududda bu hodisa zararining hajmi turli xilda keltiriladi. Masalan, *Eure, Loiret, Gard, Gironde* departamentlarida hosilning to'rtidan bir qismi, *Marne, Somme, Mayenne* departamentlarida esa uchdan bir qismi, *Ain, Hautes-Alpes, Aube, Cher, Côte-d'Or, Eure-et-Loir, Loir-et-Cher, Haute-Marne, Oise, Saône-et-Loire, Sarthe, Seine-Inférieure* departamentlarida hosilning yarmi yo'qolishi aytiladi. Fikrimiz dalili sifatida quyidagi jadvalga e'tibor qilaylik:

### 3-jadval

*Fransuz xalq maqollarida meteorologik xavf-xatarlar va zarar hajmining miqdoriy ifodalanishi*

T/r	Maqollar	Hudud	Zarar hajmi
1	<i>Quand il pleut le jour de Saint-Médard,</i>  <i>Le quart des biens est au hasard.</i>	Eure, Loiret, Gard, Gironde	To'rtidan bir qismi
2	<i>S'il pleut le jour de Saint-Médard,</i>  <i>Le tiers des biens est au hasard.</i>	Marne, Somme, Mayenne	Uchdan bir qismi
3	<i>S'il pleut à la Saint-Médard,</i>  <i>La récolte diminue d'un quart;</i>  <i>S'il pleut à la Saint-Barnabé,</i>	Hautes-Alpes, Aube, Côte-d'Or, Loir-et-Cher, Haute-Marne, Saône-et-Loire, Seine-Inférieure	Chorak va yarim

---

*Elle diminue de moitié.*

- 4 *S'il pleut à la Saint-Médard,* Ardèche, Aveyron,  
Charente, Corrèze,  
*La récolte diminue d'un quart;* Haute-Garonne, To'rt dan  
Loire, Haute-Loire, bir qismi  
Loire-Inférieure,  
*Mais s'il fait beau à la Saint-* Rhône, Tarn,  
*Barnabé,* Vienne
- Celui-ci lui coupe le bec ou le pied.*
- 5 *Si le jour de Saint-Médard il pleut* Butunlay  
*sur les vaches, elles n'ont pas de*  
*lait de l'année.* Saône-et-Loire
- 6 *Quand il pleut à la Saint-Médard,* To'rt dan  
bir qismi  
*Le quart de la récolte est emporté;* Gard
- Quand il ne pleut pas, On en perd la*  
*moitié.*

---

*Saint-Jean* kuni fransuz xalqining diniy qadriyatlarida o'ziga xos o'ringa ega. Har yili 24-iyun sanasi *jour de Saint-Jean* sifatida nishonlanadi (Montreynaud, Pierron, Suzzoni 1984: 182). Shu bois bu kun bilan bog'liq maqollar ham og'zaki nutqda ko'p uchraydi. Jumladan, *Eure-et-Loire* departamenti aholisi qadriyatlariga ko'ra 24-iyunda yog'gan yomg'ir bug'doy uchun zarardir:

*“Quand il pleut à la Saint-Jean,  
Les blés dégénèrent souvent”*

(*Agar Saint-Jean kuni yomg'ir yog'sa, bug'doy ko'pincha chiriydi yoki yaramaydi*).

Bu kun yozning eng uzun kuni va hosilning pishish vaqti bilan chambarchas bog'liq. Shu bois bu kungi yomg'ir hosilga namlik tufayli zarar yetkazadi. Maqoldan hosilni saqlash, ob-havoni kuzatish, marosimlar taqvimiga e'tibor berish kabi hududiy qadriyat va odatlar anglashiladi. Iyun yomg'iriga Fransiya janubida ijobiy munosabatda qaralsa, markaziy

hududlarda esa ushbu meteorologik hodisa zarar belgisi sifatida talqin qilinadi. Demak, bu holda xalq ma'naviyatidagi iqlimiy qadriyatlarining hududiy differensiyallashuvini ko'rish mumkin. O'z navbatida, *Aube, Marne* va *Meuse* departamentlarida esa yomg'oqlarga bo'lgan salbiy ta'siri ta'kidlanadi: *Du jour de Saint-Jean la pluie, Fait la noisette pourrie*.

Maqolda *pluie-yomg'ir* leksemasining semantik yuki sifatida *bevaqtlik, noo'rinlik, zararli natijalarni keltirish* mumkin. Demak, noo'rin yog'gan yomg'ir baraka emas, zarar ekanligi anglashiladi.

Ta'kidlaganimizdek, bu oydagi yomg'ir hodisasi ko'plab hududlar xalq madaniyatida zarar, qiyinchilik timsoli bo'lsa-da, ammo *Hautes-Aples* departamenti aholisi uchun, ayniqsa, dehqonlari uchun *xursandchilik, quvonch* belgisidir. Chunki hududda yetishtiriladigan bug'doy, arpa, suli, va sabzavotlarni sug'orish uchun bu yomg'ir dehqonlarga imkoniyat, shuningdek, yerni nam bo'lishi uni shudgor qilishda ayni muddao bo'ladi. Bundan yomg'irning baholanishi iqlim va madaniyatga ko'ra turli xil bo'lishi mumkinligi anglashiladi.

*Hautes-Aples* departamenti aholisi nutqida quyidagicha maqol bor: *Juin larmoyeux, Rend le laboureur joyeux* (Yig'lovchi iyun yer haydaydigan odamni xursand qiladi, ya'ni iyun oyida yomg'ir ko'p bo'lsa, dehqonlar-shudgor qiluvchilar xursand bo'ladi). Maqolda ona tabiat ne'mati — *yomg'ir* tabiat ko'z yoshi sifatida metaforik tarzda gavdalantirilgan. Unda ushbu hudud xalqi madaniyatiga xos tabiat qonuniyatlari bilan bog'liq bo'lgan *sabr* va *mehnatning rohati* kabi qadriyatlar namoyon bo'ladi.

**Avgust.** Bu oydagi yomg'ir borasidagi misollarga to'xtalsak, fransuz madaniyatida bu borada yakdil qarash yo'qligini, ya'ni yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir hudud o'zining tabiati, kundalik ijtimoiy hayot tarzi va uzoq yillik hayotiy tajribasidan kelib chiqqanligining guvohi bo'lamiz. Misol uchun, *Gard departamenti* aholisi dunyoqarashi bo'yicha ushbu oyda yog'gan yomg'ir uzumchilik, sharob, yog', zaytun kabilar uchun mo'l hosil belgisidir. Bunga o'sha hududda keng qo'llaniladigan ushbu paremiya misol bo'la oladi:

*“S'il pleut au mois d'août, Huile et vin partout”.*

Maqolda *huile* – *yog'* va *vin-uzum* leksemalari regional xususiyatni o'zida aks ettiradi. Chunki Fransiyaning *Gard* departamentida zaytun yetishtirish va uzumchilik qishloq xo'jalik va ishlab chiqarish sohasining ikki asosiy

tarmog'idir. Mazkur misolda Fransiya janubiy mintaqalarining agrar-madaniy tafakkuri mujassam bo'lgan. *Huile*, ya'ni *zaytun moyi* O'rta yer dengizi madaniyatida, shuningdek, diniy madaniyatda ham sog'liq, baraka, tinchlik timsoli bo'lib keladi. Paremiyadagi *yomg'ir* – to'kinlik, *moy* – hayotiy kuch, oziq-ovqat, *vino* esa ijtimoiy zavq kabi konnotativ ma'nolarni ifodalaydi. *Partout* – *har yerda* esa farovonlik butun jamiyatga oid ekanligiga ishora. Bu maqol hudud aholisining agrar dunyoqarashidagi *baraka* modelining bir ko'rinishi hisoblanadi.

*Côte-du-Nord* departamenti hududida ishlatiladigan maqolda esa birinchi avgustdagi *yomg'ir* ulardan farqli ravishda *yong'oqlar* uchun zararli ekani ta'kidlanadi:

“*Quand il pleut le 1-août, les noisettes sont piquées de vers*”  
(*Birinchi avgustda yomg'ir yog'sa, yong'oqlarni qurtlar teshadi*).

Maqolda *yomg'irning* bemavrid *yog'ishi* oqibatida kelib chiqadigan salbiy natija anglashiladi. *Vers* – *qurt* hosilning nobud bo'lishi nishonasi hisoblanadi. Maqoldagi muhit va hosil munosabatining sabab-oqibat shaklidagi aloqasi o'rtasidagi madaniy kodlarga to'xtalsak: *pluie* (*yomg'ir*) — iqlimiy ogohlantirish, *noisette* (*yong'oq*) — agrar qadriyat, *vers* (*qurt*) — tabiiy xavf ramzi bo'lib kelgan. Misoldan hudud xalqi ongidagi tabiat bilan uyg'unlik, har bir hodisaning o'z vaqti bo'lishi kabi ijtimoiy-hayotiy tushuncha o'z ifodasini topishi anglashiladi. Hududiy qadriyat sifatida *yomg'ir* har doim ham baraka, mo'l-ko'lchilik emasligi, bevaqt *yomg'ir* hosilga zarar ekanligini aytish mumkin. Hududiy xilma-xillik borasida faqat salbiy-ijobiylik emas, balki ta'sir etadigan predmetlar bilan ham farqni ko'rish mumkin. Masalan, *Ardèche, Bouches-du-Rhône, Charente-Inférieure, Côte-d'Or, Doubs, Jura, Maine-et-Loire, Marne, Haute-Marne, Basses-Pyrénées, Rhône, Haute-Saône, Tarn-et-Garonne, Voges* departamentlarida shunday paremiya bor:

“*Pluie d'août, donne miel et bon moût (vin)*”  
(*Avgust yomg'iri asal va yaxshi sharob beradi*).

Ushbu hududlarga oid etnik bilimlar bo'yicha avgustda *yog'adigan yomg'ir* dehqonlar uchun uzumning oxirgi pishishi davrida hosilni yanada shirali qiluvchi ijobiy omil hisoblanadi. Shuningdek, asalarichilik bilan shug'ullanuvchi odamlarning madaniy qarashlarida bu oydagi *yomg'ir* gullarning so'nggi nektar chiqarish davrini uzaytirib beruvchi ijobiy vosita bo'lib keladi. Demak, *avgust yomg'iri* → *gullash davri* → *asal / uzum* →

*hosil* → *bayram / sharob* degan agro-ritual zanjir hosil bo‘ladi. Bu esa hudud xalqi ongida *baraka zanjiri* sifatida namoyon bo‘ladi. Fransuz xalqi madaniyatida *vin–vino, sharob* nafaqat ichimlik, balki tabiat sovg‘asi, mehnat natijasi bo‘lgan hosil timsoli. Shuning uchun misoldagi *bon moût (vin)* ushbu holatda *quvonch, baraka, bayram* ramzi bo‘lib kelyapti. Maqolning semantik yadrosida tabiat bilan bog‘liq hosildorlik konsepsiyasini ko‘rish mumkin:

#### 4-jadval

*Fransuz meteorologik va agrar leksikasining semantik hamda metaforik xususiyatlari*

So‘zlar	Semantik ma’nosi	Metaforik (majoziy) ma’no
<i>Pluie – yomg‘ir</i>	unumdorlik, manbayi	rizq hosil, baraka, tozalash
<i>Août – avgust</i>	pishiqchilik fasli	hosilning yetilish davri
<i>Miel – asal</i>	mehnat shirinlik	mevasi, samara-baraka
<i>Vin/moût – vino</i>	sharob, ichimlik	mo‘l-ko‘lchilik, bayram, quvonch

Demak, misoldan “*Avgust yomg‘iri — hosilning mo‘lligi, shirinlik manbayi*” degan xalq tajribasi anglashiladi. *Pluie – yomg‘ir* meteonimi ishtirok etgan mazkur paremiologik birlik xalqning agromadaniy, meteorologik va iqtisodiy-ijtimoiy tafakkur natijasi hisoblanadi. Unda ushbu hududlar xalqining tabiatdan lazzatlanish, dehqonning tabiat bilan uyg‘unlikda bo‘lishi kabi qadriyatlari namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, *Côte-du-Nord* departamenti xalqi 1-avgustdagi yomg‘irni yong‘oqlar uchun zarar ekanligini aytsalar, *Corrèze* departamenti aholisi madaniyatida bu yomg‘ir ikkinchi o‘rimga zararlighi haqida ishora bor:

*“Quand il pleut le 1-août, c’est signe qu’il n’y aura pas de regain”.*

Bunda 1-avgustda yog‘gan yomg‘ir *hosil olishning yakuni, yozning tugashi* belgisi sifatida gavdalanadi. Iyul, avgust oylari fransuz chorvadorlari hamda dehqonlari uchun *fauchage, ya’ni pichan, o‘t o‘rish* mavsumi hisoblanadi. Fransiyaning janubiy hududlaridan farqli ravishda shimoliy, markaziy hududlari, jumladan, *Corrèze* departamenti iqlimiy sharoitida 1-avgust kunidagi yomg‘ir yerni sovutib, *regain – ikkinchi o‘rim* bo‘lmasligini va pichanlar yomg‘irda chirib, yemish kamayishini bildiradi. *Corrèze* departamenti dehqonchilik madaniyatida *regain* so‘zi *tabiat saxiyligi, mehnat natijasi* kabi konnotativ ma’no ifodalaydi. Mazkur paremiya ushbu hudud aholisi madaniyatida yillar davomida xalq kuzatuv natijasida shakllangan meteorologik qonuniyatidir.

Bu kabi misollarda har bir hududning madaniy, ijtimoiy kontekstni yoritishdagi xilma-xilliklar yuzaga chiqadi va iqlim sharoitlari mehnat va hayot qadriyatlar bilan bog‘langanligi namoyon bo‘ladi. Ularni tahlil qilish davomida tabiat va kishilar kundalik hayoti chorrahasidagi o‘ziga xos dunyo manzarasi hosil bo‘ladi va uni tasavvur qilishda kishiga yaqindan yordam beradi. Tabiat bilan inson munosabati, dehqonchilik, qishloq xo‘jaligi fransuzlar dunyoqarashida muhim o‘rinlardan birini egallaydi.

Turli mintaqalarda maqollarning shakllanishi va o‘ziga xosligiga madaniy omillar, ya’ni xalqning urf-odatlarini, diniy e’tiqodi va tarixiy tajribasining ta’sir etishida hudud va tabiat hodisalari ham muhim rol o‘ynaydi va ularning lingvoregional xususiyatlarini yuzaga keltiradi, shuningdek, tilning dialektal zonalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda hududiy qadriyatlar yuzaga chiqadi va ular turli shaklda namoyon bo‘ladi: madaniy, ijtimoiy, iqlimiy, lisoniy, iqtisodiy qadriyatlar kabi.

Mazkur maqollarda mehnat-tabiat uyg‘unligi hamda xalqning iqlimiy sharoitga moslashgan etnospetsifik qadriyatlari mujassam bo‘lgan. Masalan, *Gers* departamentidagi: “*S’il pleut le premier mai, Le cheval gagne son procès, Et la truie le perd*” degan maqolda madaniy-ijtimoiy qadriyatlar ifodalangan. Ya’ni hayvonlar (*le cheval – ot, la truie – cho‘chqa*) orqali madaniy identet sifat ko‘rsatilgan yoki etnik qadriyatlar bo‘yicha yuqoridagi misollarda keltirilgan *Pluie – baraka* yoki xavf, *pomme, vin, lin – hududiy boylik, mehnat qadriyati, hayvonlar esa (le cheval – ot, le cochon – cho‘chqa, la vache – sigir, la chèvre – echki)* tabiat belgilarining jonli indikatorlaridir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, har bir maqolda Fransiya regionlarining o'ziga xos qadriyati ifodalanadi. Buni umumiy tarzda quyidagi jadval orqali yaqqolroq ko'rish mumkin:

### 5-jadval

*Fransuz meteorologik maqollarida aks etgan ijtimoiy-madaniy qadriyatlar va mintaqaviy xususiyatlar*

Maqol	Hudud	Qadriyat turi	Izoh
<i>Pluie de mars ne profite pas.</i>	Bouches-du-Rhône	Iqlimiy	Mart yomg'iri bu mintaqada foydadan ko'ra zararli hisoblanadi. Misolda ehtiyotkorlik qadriyat sifatida mustahkamlangan.
<i>Mars pluvieux, lin pour les femmes ou abondance de lin.</i>	Corse	Iqtisodiy va genderli	Misolda zig'ir ayollar uy hunarmandchiligi mahsuloti, yomg'ir genderlangan mehnat qadriyatlari bilan bog'langan.
<i>Pluie de mars, Ne vaut pas pisse de renard.</i>	Nièvre	Iqlimiy	Bu mintaqada mart oyi yomg'iri foydasiz, ba'zan zararli, deb talqin etiladi. Bunda ehtiyotkorlik va kinoyali munosabat ko'rinadi.
<i>À mars poudreux, Avril pluvieux.</i>	Tarn-et-Garonne	Iqlimiy-bashorat	Bashorat va tabiat belgilariga asoslangan qadriyat.
<i>De gaieté, vigneron, vide vingt fois ton verre, Lorsque des pluies</i>	Nièvre	Iqtisodiy-ijtimoiy	Vino ishlab chiqarishga asoslangan bu hududda mart yomg'iri hosil va quvonch ramzi, vinochilik hududiy ko'rsatkich



Oy	Yomg'irning asosiy semantikasi	Ijobiy/salbiy baholanishi	Asosiy sohalar	Lingvomadaniy xususiyat	Regional xususiyat
<b>April</b>	Baraka, hosil, tabiat ne'mati, ba'zan qurg'oqchilik darakchisi	Asosan ijobiy, ayrim hududlarda salbiy	Dehqonchilik, chorvachilik	Yomg'ir — rizq va unumdorlik ramzi	Janubiy hududlarda baraka, Aveyron va Lozèreda qurg'oqchilik belgisi
<b>May</b>	Baraka, xavf, ogohlantirish	Ikki qutbli (ijobiy va salbiy)	Chorvachilik, bog'dorchilik, dehqonchilik	Diniy taqvim va xalq e'tiqodi bilan bog'liq	Saint-kunlari bilan bog'liq paremiyalar ko'p uchraydi
<b>Iyun</b>	Zarar, yo'qotish, noqulay ob-havo	Asosan salbiy	Hosildorlik, sutchilik	Yomg'ir — xavf va talafot ramzi	Saint-Médard va Saint-Jean bilan bog'liq prognozlar
<b>Avgust</b>	Mo'l-ko'lchilik yoki hosilga zarar	Hududga ko'ra turlicha	Uzumchilik, asalarichilik, o'rim	Yomg'ir — hosil pishishi va agrar sikl qismi	Janubda sharob va zaytun uchun foyda, shimolda yong'oq va pichanga zarar

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, fransuz tilidagi *pluie* meteonimi ishtirok etgan paremiyalar oylar kesimida turlicha semantik va lingvomadaniy xususiyat kasb etadi. **April** oyida yomg'ir asosan unumdorlik, hosildorlik va baraka ramzi sifatida talqin qilinsa, **may** oyida uning semantikasi ikki qutbli xarakterga ega bo'lib, foyda va zarar o'rtasidagi meteorologik indikator vazifasini bajaradi. **Iyun** oyida *pluie* meteonimi ko'proq xavf, hosilning kamayishi va iqtisodiy talafot bilan bog'liq holda qo'llanadi. **Avgust** oyida

esa yomg'irning baholanishi hududning agrar va iqtisodiy ixtisoslashuviga ko'ra farqlanib, ayrim regionlarda mo'l hosil va sharobchilik ramzi bo'lsa, boshqa hududlarda hosil uchun xavf belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur birliklarni xalqlarning asrlar davomida shakllangan meteorologik kuzatuvlari, qishloq xo'jaligiga oid tajriba va bilimlari, shuningdek, tabiat bilan hamohanglikda bo'lishga oid qarashlarini namoyon qiluvchi lingvomadaniy birliklar deyish mumkin. Demak, *pluie* meteonimi fransuz xalqining tabiat, mehnat va hosil bilan bog'liq etnomadaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Ushbu paremiyalar orqali xalqning iqlimiy kuzatuvlari, agrar tafakkuri, diniy qarashlari va regional qadriyatlarini yaqqol namoyon bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

Аликулов А. Ғ. “Ел-ёғин” луғавий-маъновий гуруҳи (тизими, қўлланилиши ва лексикографик талқини): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. — Тошкент, 2011. — 19 б.

Ваққосова Д. В. Ўзбек тилидаги анемонимларнинг семантик таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. — Фарғона, 2005. — 22 б.

Mamatov A. E. Zamonaviy lingvistika (Lingvomadaniyatshunoslik asoslari). — Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020. — 234 b.

Xamidova M. H. Fransuz va o'zbek tillarida meteorologik leksika tizimi va tarkibi: Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. — Buxoro, 2024. — 68 b. — URL: [https://buxdu.uz/media/afterferat/Xamidova\\_Muborak\\_Hafizovna.pdf](https://buxdu.uz/media/afterferat/Xamidova_Muborak_Hafizovna.pdf) (murojaat sanasi: 29.04.2026).

Adam J. A. Aspects de la mise en texte d'une catastrophe naturelle: autopsie d'un fait divers // Huitièmes Entretiens du Centre Jacques Cartier: Médias et météo (7-8 décembre 1995, Université Lumière, Lyon 2, France). — Lyon, 1995.

Григорьева О. Н., Силян Л. Названия атмосферных осадков в современном русском языке // Филология и человек. — 2022. — № 2. — С. 52–64. — [https://doi.org/10.14258/filichel\(2022\)2-04](https://doi.org/10.14258/filichel(2022)2-04)

Данилова Л. В. Метеорологическая лексика тюркских языков (Сравнительно-историческое освещение): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Ташкент, 1972. — 17 с.

Лазарева М. А. Сопоставительный анализ метеорологической лексики английского и русского языков: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Москва, 2000. — 19 с.

Искандаров А. Г. Метеорологическая лексика башкирского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Уфа, 2009. — 25 с.

Сокорина М. О. Лингвокультурологическое исследование поля Погода в русских говорах Алтая (моделирование фрагмента региональной языковой картины мира): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Барнаул, 2004. — 20 с.

Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. — Москва: Слово, 2000. — С. 86. — 146 с. — URL: <http://www.ffl.msu.ru/research/publications/ter-minasova-lang-and-icc/ter-minasova-yazik-i-mkk-BOOK.pdf> (дата обращения: 29.04.2026).

Толстая С. М. Славянская мифология. Энциклопедический словарь. Изд. 2-е. — М.: Международные отношения, 2002. — 512 с.

Черемисина Е. В. Регионализмы и их роль в художественном тексте М. Еськова // Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. — 2016. — № 03. — С. 173–176. — URL: <http://www.nauteh-journal.ru/index.php/--gn16-03/2317-a> (дата обращения: 29.04.2026).

Шушарина Г. А. Региональная топонимика Комсомольска-на-Амуре в контексте лингвоаксиологического исследования региональной идентичности // Ученые записки Комсомольского-на-Амуре государственного технического университета. — 2015. — Т. 2, № 2 (22). — С. 47–49.

Яньчунь Л. Метеорологическая лексика и фразеология в русском и китайском языках: лингвокультурологический аспект: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Уфа, 2012. — 27 с.

Сувонова Н. Некоторые проблемы перевода узбекских пословиц на французский язык // Ученый XXI века. — 2016. — № 2-5 (15). — С. 46–49. — URL: [http://www.uch21vek.com/assets/uch21vek\\_2\\_5\\_2016.pdf](http://www.uch21vek.com/assets/uch21vek_2_5_2016.pdf) (дата обращения: 29.04.2026).

Montreynaud F., Pierron A., Suzzoni F. Dictionnaire de proverbes et dictons. — Paris: Les usuels du Robert, 1984. — 207 p.

## References

Aliqulov, A. G'. (2011). "*El-yog'in*" *lug'aviy-ma'noviy guruhi (tizimi, qo'llanilishi va leksikografik talqini)* ["El-yog'in" lexical-semantic group (system, usage and lexicographical interpretation)], Extended abstract of candidate's thesis, Tashkent, 19.

Vaqqosova, D. V. (2005). *O'zbek tilidagi anemonimlarning semantik tahlili* [Semantic analysis of anonyms in the Uzbek language], Extended abstract of candidate's thesis, Fergana, 22.

Mamatov, A. E. (2020). *Zamonaviy lingvistika (Lingvomadaniyatshunoslik asoslari)* [[Modern linguistics (Foundations of linguacultural studies)], Tashkent, Tafakkur avlodi, 234.

Xamidova, M. H. (2024). *Fransuz va o'zbek tillarida meteorologik leksika tizimi va tarkibi* [System and structure of meteorological leksikon in French and Uzbek languages], Extended abstract of Doctor's thesis, Bukhara, 68, URL:

[https://buxdu.uz/media/aftoreferat/Xamidova\\_Muborak\\_Hafizovna.pdf](https://buxdu.uz/media/aftoreferat/Xamidova_Muborak_Hafizovna.pdf)

Adam, J. A. (1995). Aspects de la mise en texte d'une catastrophe naturelle: autopsy d'un fait divers, *Huitièmes Entretiens du Centre Jacques Cartier: Médias et météo*, December 7-8, 1995, Université Lumière, Lyon 2, France, Lyon.

Grigor'eva, O. N., & Silyan', L. (2022). *Nazvaniya atmosferykh osadkov v sovremennom russkom yazyke* [Names of atmospheric precipitation in modern Russian], *Filologiya i chelovek*, No. 2, 52–64, [https://doi.org/10.14258/filichel\(2022\)2-04](https://doi.org/10.14258/filichel(2022)2-04)

Danilova, L. V. (1972). *Meteorologicheskaya leksika tyurkskikh yazykov (Sravnitel'no-istoricheskoe osveshchenie)* [Meteorological vocabulary of Turkic languages (Comparative-historical coverage)], Extended abstract of candidate's thesis, Tashkent, 17.

Lazareva, M. A. (2000). *Sopostavitel'nyi analiz meteorologicheskoi leksiki angliiskogo i russkogo yazykov* [Comparative analysis of meteorological vocabulary of English and Russian], Extended abstract of candidate's thesis, Moscow, 19.

Iskandarov, A. G. (2009). *Meteorologicheskaya leksika bashkirskogo yazyka* [Meteorological vocabulary of the Bashkir language], Extended abstract of candidate's thesis, Ufa, 25.

Sokorina, M. O. (2004). *Lingvokul'turologicheskoe issledovanie polya Pogoda v russkikh govorakh Altaya (modelirovanie fragmenta regional'noi yazykovoï kartiny mira)* [Linguoculturological study of the field Weather in Russian dialects of Altai (modeling a fragment of the regional language picture of the world)], Extended abstract of candidate's thesis, Barnaul, 20.

Ter-Minasova, S. G. (2000). *Yazyk i mezhkul'turnaya kommunikatsiya* [Language and intercultural communication], Moscow, Slovo, 86, 146, URL: <http://www.ffl.msu.ru/research/publications/ter-minasova-lang-and-icc/ter-minasova-yazik-i-mkk-BOOK.pdf>

Tolstaya, S. M. (2002). *Slavyanskaya mifologiya. Entsiklopedicheskii slovar'* [Slavic mythology. Encyclopedic dictionary], Moscow, Mezhdunarodnye otnosheniya, 139–140.

Cheremisina, E. V. (2016). *Regionalizmy i ikh rol' v khudozhestvennom tekste M. Es'kova* [Regionalisms and their role in the literary text of M. Eskov], *Sovremennaya nauka: aktual'nye problemy teorii i praktiki*, No. 03, 173–176, URL: <http://www.nauteh-journal.ru/index.php/--gn16-03/2317-a>

Shusharina, G. A. (2015). *Regional'naya toponimika Komsomol'ska-na-Amure v kontekste lingvoaksiologicheskogo issledovaniya regional'noi identichnosti* [Regional toponymy of Komsomolsk-on-Amur in the context of lingua-axiological research of regional identity], *Uchenye zapiski Komsomol'skogo-na-Amure gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta*, vol. 2, No. 2 (22), 47–49.

Yan'chun', L. (2012). *Meteorologicheskaya leksika i frazeologiya v russkom i kitaiskom yazykakh: lingvokul'turologicheskii aspekt* [Meteorological vocabulary and phraseology in Russian and Chinese: linguoculturological aspect], Extended abstract of candidate's thesis, Ufa, 27.

Suvonova, N. (2016). *Nekotorye problemy perevoda uzbekskikh poslovits na frantsuzskii yazyk* [Some problems of translating Uzbek proverbs into French], *Uchenyi XXI veka*, No. 2-5 (15), 46–49, URL: [http://www.uch21vek.com/assets/uch21vek\\_2\\_5\\_2016.pdf](http://www.uch21vek.com/assets/uch21vek_2_5_2016.pdf)

Montreynaud, F., Pierron, A., & Suzzoni, F. (1984). *Dictionnaire de proverbes et dictons* [Dictionary of proverbs and sayings], Paris, Les usuels du Robert, 207.